

O'ZBEK TILIDA KO'MAKCHILARNING TURLARI VA SINONIMIK XUSUSIYATLARI

Sattorqulova Shalola To'ychi qizi

20-maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

shalolasattorqulova995@gmail.com

+998933210495

Annotatsiya: Bu maqolamiz orqali biz, ko'makchilarning turlari, vazifalari xususiyatlari hamda gapdagi o'rni haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin, shuningdek, gapdagi o'rni va vazifalarini sanab o'tamiz. Shu bilan birga misollar orqali ko'makchilar haqida yana ko'proq bilib olishingiz uchun namunalar keltiramiz.

Kalit so'zlar: Sof ko'makchilar, so'z turkumlari, tilshunoslik, ma'nodoshlik, ko'makchilar, qo'shimcha ko'makchilar, morfema, yordamchi so'zlar kategoriyasi, grammatika, xususiyat,

Ko'makchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi boshqa munosabatlar bildirish uchun qo'llanadigan so'z turkumidir. Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lgan bo'lsa ham ular hozirgi zamon o'zbek tilida leksik (material) ma'nolarini yo'qotgan, grammagik ma'nosigina bor so'zlardir. Shuning uchun ular hozirgi zamon o'zbek tilida faqat boshqa so'zlar bilan birga ishlatiladi. Ko'makchilar o'zgarmaydi (turlanmaydi va yasalmaydi), kelishiklarni boshqaradi. Masalan, shuning uchun (qaratqich kelishigi), uyga tomon (jo'nalish kelishigi). Hozirgi zamon o'zbek tilida ko'makchilarning ikki xili uchraydi. Bular: bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar, singari mustaqil ma'nosini tamoman yo'qotgan so'zlar va tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, so'ng, tashqari, beri, ko'ra, chog'li, uzra singari ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi, mustaqil so'zlardan (ot, sifat, ravish va fe'llardan) ko'makchilikka ko'chgan so'zlardir. Boshqa turkiy tillarda va shuningdek, o'zbek tilida ham ko'makchilar semantik jihatdan biror (bosh, jo'nalish va chiqish) kelishikdagi so'z bilan aloqador bo'lgani va bu ko'makchili birikmaning ma'nosi turli sintaktik munosabatlarni ifodalash bo'lgani uchun ko'makchilarning qaysi kelishikni boshqarib kelishi, ya'ni sintaktik tomoni hisobga olinishi kerak. Sintaktik tomondan ko'makchilar quyidagi guruhlariga bo'linadi: 1) bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 2) jo'nalish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 3) chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar. Vosita, sabab, maqsad, qiyos-o'xshatish munosabatlari ifodalash uchun qo'llaniladigan bilan, uchun, kabi, chog'li, qadar, sayin, bo'yicha, orqali, sababli

ko'makchilari bosh kelishikdagi so'zni yoki qaratqich kelishigidagi olmoshlarni talab qiladi. Yo'nalish, sabab, maqsad munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadigan

ko'ra, qarshi, qarab, qaramasdan, qaramay ko'makchilari jo'nalish kelishigidagi so'zni talab qiladi. Ko'makchilar va ularning uslubiy xususiyatlari Vatan uchun to'kkali yo'qmi bir qoshiq qoning? (H. Olimjon) Yuqoridagi gapda Vatan so'zini to'kkali fe'liga grammatik va mazmuniy tomondan bog'lash maqsadida uchun yordamchisi ishlatilmoqda. So'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosa-batini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi so'zlarga ko'makchilar deyiladi. Masalan, Oyni etak bilan yopib bo'lmas. (Maqol) Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatik ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir. Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra, ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi: 1) sof (asl) ko'makchilar; 2) vazifadosh ko'makchilar. Leksik ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat grammatik ma'no ifodalashga o'tgan ko'makchilarga sof (asl) ko'makchilar deyiladi. Bunday ko'makchilarga kabi, singari, bilan, birga, uchun, sayin, haqida, holda kabi ko'makchilar kiradi. Leksik ma'nosini saqlagan holda, gapda grammatik ma'no ifodalash vazifasini bajaruvchi so'zlarga vazifadosh ko'makchilar deyiladi. Bunday ko'makchilarga ustida (ish ustida), ostida (ozodlik bayrog'i ostida), oldida (vijdoni oldida), orasida, orasiga (xalq orasida), boshida (yo'l boshida), qarab (Toshkentga qarab yurmoq), bo'ylab (daryo bo'ylab) singari ko'makchilar kiradi. Vazifadosh ko'makchilar ko'makchilashayotgan ot va fe'llardir. Shunga ko'ra bunday so'zlar mustaqil so'z vazifasida ham kelishi mumkin bo'ladi. Masalan, kitob televizor ustida turibdi —televizor ustida janjallashdi. Devordan bo'ylab qaradi — Ariq bo'ylab ketdi va h.k.

Ushbu manbalarda ko'makchilarning genetik jihatdan ot, sifat, ravish va fe'lning ravishdosh shakllaridan ajralib chiqishi qiyosiy-tarixiy tahlillar asosida dalillangan. Olib borilgan ushbu ilmiy izlanish natijalari mazkur lisoniy birliklarni keyingi tadqiqolari, shuningdek, maktab va oliy o'quv yurtlarining o'zbek tiliga oid darslik va qo'llanmalarida mazkur yordamchi so'zlarni yoritishda manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelashtirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, Bolalar bog'chasiga hadya qildim. Bolalar bog'chasi uchun hadya qildim. Mehnatsevarligidan xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Mehnatsevarligi uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Dalaga ketdi — dala tomon ketdi. Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtasida mazmuniy umumiylik bo'lsagina biri o'rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma'nosi, ikkinchi gapda sabab ma'nosi, uchinchisida yo'nalish ma'nosi mavjud. Ana shu umumiy ma'no ularning o'zaro almashinuviga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur umumiy ma'noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko'makchi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi

orqali ifodalangan ma'no esa umumiyroq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: Samarqandga ketdi — Samarqand tomon(ga) ketdi. 2 Bosh kelishikdagi so'z (ba'zan qaratqich k e lishigidagi olmosh) bilan k e ladigan ko'makchilar Bilan. Bu ko'makchi o'zi birga k e lgan so'z bilan birlikda quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1. Birgalik, hamkorlik ma'nosini ifodalaydi: Bu ko'chmakchi birga, birlikda, birgalikda, birlashib, birgalashib so'zlari bilan k e lganda birgalik, hamkorlik ma'nosi yana kuchayadi: Asqar oga zavq qilib kuldi, — Sen hali dengizni ko'r- ganing yo'q, qizim/ Xudo xohlasa kuyoving bilan birga ko'rasan (A. Qahhor). U, ssh kolxozchi, o'z t e ngqurlari bilan birga 2

Yordamchi so'zlar, ayniqsa, ko'makchi so'zlarni tahlilga tortar ekanmiz, biz avvalo, "so'z" atamasiga diqqatimizni qaratamiz. Bir guruh olimlar ko'makchilarning so'z ekanini tan olmasligini, lekin bu xato fikr ekanligini asoslab beradi. "Yordamchi so'zlar" deb ishlatishimizni, lekin ularning so'z sifatida tan olmasligimizni; ko'makchi so'zlar ham mustaqil so'z turkumlaridan kelib chiqqanligini rad etmasdan, ularning so'z ekanligini rad etishimizni aytib o'tadilar. Lekin ko'makchilarning so'z ekaniga shubha qiladilar. Vaholanki, otko'makchilar, sifat-ko'makchilar, ravish-ko'makchilar, fe'l-ko'makchilar deyilgan atama har qanday ko'makchini qaysi so'z turkumlariga taalluqli ekanini qayd etishdir. Bu holatni jumlaning cheklovchi komponenti. Natijada, so'z ma'lum bir leksik yoki moddiy xususiyatlarga ega bo'ladi. jumlaning cheklovchi komponenti. Natijada, so'z ma'lum bir leksik yoki moddiy xususiyatlarga ega bo'ladi professor A.B. Pardayev quyidagicha izohlaydi: "Nafaqat ko'makchilarni, balki boshqa yordamchi so'zlarni ham so'z deb hisoblamaslik "so'z" atamasini "leksema" tushunchasi bilan almashtirishdan kelib chiqqan...". Shu o'rinda lug'atlarga murojaat qilamiz. Azim Hojiyev "leksema" va "so'z"ni, leksema - lug'aviy ma'no anglatuvchi unsur, so'z - leksemaning shakl va mazmun bilan voqelangan ko'rinishi", - ekanligini izohlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'zbek tilida ko'makchilarning o'rnini va vazifalarini ko'rsatish bilan bir qatorda nafaqat yordamchi so'zlar orasida, balki o'zbek tilining boshqa birliklari tasniflanishida ham bir-biriga zid ma'lumotlar, turlicha qoidalar uchrab turadi. Bu masalalarni yechishimizda ko'makchilarning xususiyatlarini va gapdagi o'rnini bilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. С. Ахманова Словарь лингвистических терминов издательство; Советская энциклопедия, Москва-1966.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. ЎзМЭ. Тошкент. 2002. 164-бет.

3. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўзларнинг лингвистик табиатига доир айрим мулохазалар // Қарақалпақ мамлекетлик университетининг хабаршыси; Нукус, 2011. –№ 1-2(10-11).
4. Исоқов З. Сўз туркумлари системасида ёрдамчи сўзлар, // Ўзбек тили ва адабиёти , 2002. - № 2. 5. Пардаев А., Қурбонов С. Сўз таърифи хусусида // «Интернаука»: научный журнал. Часть 2. – Москва, 2017. - № 11(15).
5. Rustamov T. Sof ko‘makchilar.- Toshkent: Fan, 1991. - 124 b. Berdiyev H. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida so‘ngko‘makchilar: Filol.fan. nomz. ...dis-ya. - Samarqand, 1949. - 134 b
6. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap; «O‘zbek tili va adabiyoti», 1986. 6-son, Nurmonov A.N. Ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi. «O‘zbek tili va adabiyoti», 1986. 6-son, 28-42-betlar
7. Sayfullayva R.R, Mengliyev B. R., Boqiyva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.– T.: “Fan va texnologiya”, 2009.
8. Xojiyev A. O‘zbek tilida morfologiyasi,morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. - T.: “Fan”, 2010.